

Date: 23rd December-2024

KOMIL INSONNI SHAKLLANTIRISHDA MEHNAT TARBIYASINING O'RNI.

Olimjonova Ziyat Bobomurod qizi

International school of finance technology and science instituti

katta o'qituvchisi

Eldorbekova.S.I

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola komil insonni shakllantirish jarayonida mehnat tarbiyasining o'rni va ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada mehnat tarbiyasining inson kamolotidagi roli, uning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishdagi o'rni va zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida tutgan o'rni batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada mehnat faoliyatining oilaviy, ta'lim muassasalaridagi va jamoat hayotidagi ahamiyati hamda uni samarali tashkil etish usullari muhokama qilingan.

Kalit so'z: mehnat tarbiyasi, shaxs, kasb, hunar, mehnatsevarlik, ko'nikma, malaka.

Inson dunyoga kelibdiki, uning komil shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo'lgan tarbiya turlari: aqliy, axloqiy, estetik, ma'naviy, jismoniy tarbiya va tarbiyaning asosiy turidan biri bo'lmish mehnat tarbiyasi ham hisoblanadi. Mehnat tarbiyasi-tarbiyaning boshqa hamma turlaridan avval paydo bo'lgan va insonda tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, ishning ko'zini bila olish, tartiblilik xususiyatlarni shakllantiruvchi pedagogik jarayondir. Mehnat tarbiyasi g'oyat keng falsafiy-pedagogik kategoriya bo'lib, „mehnat ta'limi“, „kasbga yo'naltirish“, „politexnik ta'lim“, „kasb ta'limi“ singari tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnat tarbiyasi berish hamma zamonlarda ham jamiyat taraqqiyotining asosi, yoshlarni hayotga tayyorlashning eng muhim vositasi bo'lib kelgan. Shuning uchun ham barcha ilohiy kitoblar va hamma mutafakkirlar tomonidan yaratilgan bitiklarda mehnat tarbiyasi ga katta e'tibor berilgan. Mehnat tarbiyasi bolaga maktabga qadam qo'yishidan oldin berilishi kerak. Bolalar yoshlik chog'idan tevarak-atrofga qiziqishni boshlaydilar, kattalarga yordam berishni xohlaydilar. Bu intilishni albatta, rag'batlantirib turish lozim, chunki maktab davrida mehnat tarbiyasi yaxshi berilishi maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab mehnat tarbiyasi berishga bog'liqdir. Albatta bolaga mehnat tarbiyasini berish jarayonida uning yosh xususiyati, aqliy, jismoniy ko'nimalarni e'tiborga olish lozim. Bola 2 yoshida qo'lidan kelganicha o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishni boshlaydi, kiyimini tartibsiz bo'lsada kiyib olishadi, ovqatni to'kib bo'lsada yeyishadi, oyoq kiyimini teskari qilib bo'lsada kiyib olishadi va hokazo. Bu jarayonda ota-ona bolaga bu narsalarni o'zi qilib bermasligi, dakki bermasligi, aksincha bu narsalarni to'g'ri tushuntirishi, ana shu amaliyot orqali sekin sekin to'g'ri bajarishini hisobga olishi kerak. Bundan tashqari bola bog'chada ham loydan, plastilindan shakllar yasash, qog'ozdan, kartondan buyumlar yasashni o'rganadilar. 5-6 yoshlarida bolaga o'z o'rnini yig'ishtirish, kiyimini taxlab qo'yish, idish tovoqlarni tashish kabi ishlar ota-ona tomonidan o'rgatiladi. Bola kichik maktab yoshiga qadam qo'yganida uning asosiy



Date: 23rd December-2024

faoliyati o'qish bo'lib qoladi. Bu jarayonda bolada aqliy va jismoniy mehnatni tashkil etadi. O'quv topshiriqlarni bajarish, maktabga borib kelish, berilgan bilimlarni egallash, o'tilgan mavzularni takrorlab borish uchun o'quvchilarga mehnat tarbiyasi berilgan bo'lishi kerak. Chunki bu jarayonda albatta o'quvchilarda ishning ko'zini bilish, mas'uliyat, ishchanlik va tashkilotchilik xususiyatlariga ega bo'lishi kerak. Avvalo, mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;
- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

Mehnat tarbiyasini tashkil etish shakllari: mehnat bayrami, o'quvchilar yasagan buyumlar ko'rgazmasi; hasharlar uyushtirish; qarovchisi yo'q, bemor, keksa va nogiron kishilarga ko'rsatiluvchi insonparvarlik yordami; ko'kalamzorlashtirish; ta'mirlash (maktab binosini); «Mohir qo'llar» to'garagi faoliyati.[1] Bundan tashqari bir qancha Sharq mutafakkirlarimiz mehnat tarbiyasi haqida, bolaga kasb-hunar o'rgatish kerakligi haqida oltinga teng fikrlar berishgan.

Kaykovus o'zining mashhur asari "Qobusnoma" da odob-axloq to'g'risida juda ko'p ibratli fikrlarni ilgari suradi. Ayniqsa, bolalarni yoshligidan mehnat qilishga va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga hamda kasbkorlik tarbiyasiga keng to'xtaladi. Ota-onalarni bolalarga yoshligidan boshlab mehnat qilishni va biror bir kasbni o'rgatib borish kerakligini ta'kidlaydi. "Ey farzand sen bola ko'rsang, unga yaxir qancha shi ot qo'ygin. Chunki otadan farzand haqlaridan biri yaxshi ot qo'yishdir. Kattaroq bo'lgandan so'ng, raiyat bo'lsang, hunar va kasb o'rgatasan". Kitobning 43-bobi asosan dehqonchilik va hunarlarga bag'ishlangan bo'lib, Kaykovus kishilarning dehqonchilik ishlari bilan shug'ullanishlari kerakligini aytadi. U dehqonchilik kasbini ulug'lab: "Ey,



Date: 23rdDecember-2024

farzand agar dehqon bo'lsang, barcha dehqondan bilimdonroq bo'lg'in va har bir ekinni eksang, vaqtdan o'tkazmasdan hamma vaqt yerni tarbiya qilgin va dehqonchilk kasbidan bahramand bo'lgaysan"[1]

Forobiy bolalarni yoshligidan boshlab mehnat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash hamda o'ziga yoqqan ish bilan mashg'ul bo'lishi, asta-sekin o'zi qiziqqan biron bir kasbni egallashi zarurligi hamda barcha hunarlarni bir to'la egallab bo'lmasligini ifodalab, shunday deydi: "Har bir kishiga biriktirilgan ma'lum bir ish bo'lishi kerak, toki u kishi o'ziga biriktirilgan ishni kechiktirmasdan o'z vaqtida bajarsin".

Fors-tojik adabiyotining yirik namoyondasi Shayx Sa'diy o'z asarlarida bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor berib, mehnatning kishi kamoloti va hayotida egallagan o'rni hamda halol mehnat qilish farovonlik keltirishini ta'kidlab, barcha yutuqlar zamirida mehnat turishini va bolalarni yoshligidan boshlab mehnat qilishga o'rgatish kerakligini hamda halol mehnat bilan topilgan bir burda non ham totli bo'lishini ifoda etadi:

Esam arpa nonini mehnat bilan,

Shirindir birovning oq noni bilan

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq " asarida mehnat insonni bezaydigan muhim sifat ekanligi, yalqovlik va dangasalik esa insonga mos xususiyat emasligini alohida ta'kidlab o'tadi. U mehnatni yaxshi yoki yomon bo'lmasligi va bolalarni har bir ishni bajarishga o'rgatish kerakligi bu esa bolalarni yuksak kamolotga olib chiqishga va saodatga erishishga yaqindan ko'mak berishini ta'kidlaydi. Kasb-hunarni yaxshi yoki yomon bo'lmasligi va bolalarni yoshligidan boshlab kasb-hunarga o'rganishga chorlaydi: "... ushbu ko'mirchilik, bu temirchilik manga munosib ish emas. deb dangasalik qilib, ishsiz ursa, zo'r ayb, g'ayratsizlikdir". Abdulla Avloniy bolalarni mehnatga o'rgatish va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda hayotiy misollar keltirish bilan hayvonlar va hashoratlar misolidagi hikmatlardan foydalangan. Adib bolalarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda oilada, ota-onalar yordamidan so'ng maktablardagi ta'lim-tarbiya jarayonlarida amalga oshirishni ma'qullaydi[3]

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, bolaga faqatgina aqliy yoki jismoniy tarbiyani emas balki mehnat tarbiyasini ham berib borish lozim. Chunki bu tarbiya turlari bola kamol topib voyaga yetish yo'lida chambarchas bir biri bilan bog'liq hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini berish jarayonida albatta, shaxsning yosh xususiyati, jismoniy, aqliy qobiliyatlari va ruhiy holatini hisobga olgan holda berib borish kerak. Bolaga kichiklik chog'idan mehnat tarbiyasi berib borish kerakligi, shu orqali bolada mehnatga bo'lgan muhabbatni oshirish va dangasalik yalqovlik kabi yomon xususiyatlarni kuzatilmasligiga, bolada maktab davrida mehnat tarbiyasini mukammal shakllanishiga sabab bo'ladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti 2017 164b
2. Kaykovus "Qobusnoma". T.: "O'qituvchi" 2006, 205 b



Date: 23rd December-2024

3. OLIMJONOVA, Z. (2024). OILADAGI SEVGI-ER-XOTIN MUNOSABATLARINING ASOSI SIFATIDA. *UzMU xabarlari*, 1(1.2. 1), 165-168.
4. Murodjon Oktam og, F. (2023). OILADA KONFLIKTLARNI YUZAGA KELISH SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR. *Journal of new century innovations*, 27(2), 46-49.
5. Olimjonova, Z. B. Q., Ilhomov, S. O. O., & Anorboyeva, J. S. Q. (2023). JAMOADA KONFLIKTLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 235-238.
6. Якубова, Г. А., & Олимжонова, З. Б. Қ. (2022). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 681-689.
7. ABDUSAMATOV, X. (2024). OILALI TALABALARDA AJRIM HOLATI YUZAGA KELISHINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. *News of UzMU journal*, 1(1.2. 1), 70-74.
8. Абдусаматов, Х. У. Ў. (2023). МЕҲНАТ МИГРАНТЛАРИ ОИЛАЛАРИДАГИ ХАЁТ МАЗМУНИНИНГ ЙЎНАЛГАНЛИК ҲОЛАТИ. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 663-670.
9. Xudaybergenovich, A. X., & Baxtiyarovna, S. D. (2024). FARZAND TARBIYASIGA OILAVIY AJRALISHLAR IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK TA'SIRINI EMPIRIK O'RGANISH YUZASIDAN TADQIQOT XULOSALARI. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 4(5), 73-82.
10. Baxtiyorovna, S. D. (2023). SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA IJTIMOIIY-IQTISODIY QARAM XULQ-ATVOR PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA. *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 6(9), 22-27.

